

FAVQULODDA HOLATLARDA INSON HUQUQLARINI CHEKLASHNING NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI

Bobonazarov Muhammadjon Muzaffar o'g'li

**Toshkent davlat yuridik universiteti “Xalqaro huquq va inson huquqlari”
mutaxassisligi magistranti.**

muzaffarovichmuhammadjon@gmail.com

Telefon raqami: +998936806165

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13923440>

Annotatsiya: Ushbu tezisdan favqulodda holatlarda inson huquqlarini cheklashning asoslari muhokama qilingan. Shuningdek, inson huquqlari eng oliy qadriyatligiga qaramasdan nima uchun ba'zi vaqtlarda cheklanishi va bu cheklovlar boshqa insonlarning huquqlariga zarar yetkazmaslik uchun qo'llanilishiga atforlicha to'xtalamiz.

Kalit so'zlar: Favqulodda vaziyat, inson huquqlari, cheklov, qonuniylik, maqsadga muvofiqlik.

THEORITICAL-LEGAL ISSUES OF HUMAN RIGHTS RESTRICTION IN EMERGENCIES

Bobonazarov Muhammadjon Muzaffar's son

**The master student of Tashkent State University of Law,
majoring in International Law and Human Rights.**

muzaffarovichmuhammadjon@gmail.com

Telephone number:+998936806165

Annotation: This thesis will discuss the reasons for limiting human rights in emergency situations. We will also discuss why human rights are sometimes limited, despite their highest value, and why these restrictions are used in order not to harm the rights of other people.

Key words: Emergency situation, human rights, limitation, legality, expediency.

Kirish: Barchamizga ma'lumki, inson huquqlari bu eng oliy qadriyat hisoblanadi. Endi esa “inson huquqlari” jumlasining ma'nosiga to'xtalsak bu quyidagicha, G.Yuldashova, N.Gafurova inson huquqlari tushunchasiga quyidagicha ra'rif beradi. Inson huquqlari – insonlarning millati, irqi, tili, dini, jinsi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar tengligiga asoslangan huquq va erkinliklar majmui. Inson huquqlari yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik, fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi kabi huquqlarni o'z ichiga qamrab oladi.¹ Bu olimlarning fikriga qo'shimcha tarzda men “inson huquqlari” tushunchasiga quyidagi ta'rifni berdim, inson huquqlari -milliy va xalqaro huquq me'yorlarida ko'zda tutilgan (ruxsat berilgan), insonlarga tegishli bo'lgan qonuniy harakatlar va imkoniyatlardir. Birinchidan, inson huquqlari ma'lum bir qonun hujjatlarida e'tirof etilgan bo'lishi kerak, bu mamlakatning bosh qomusi hisoblangan Konstitutsiya bo'lishi mumkin, yoki xalqaro huquq me'yorlarida keltirilishi mumkin. Nega aynan imkoniyatlar degan tushunchaga ham to'xtaladigan bo'lsak, huquqlar insonlarga imkoniyatlar taqdim qiladi. Inson huquqlari Mutlaq ya'ni uni hech qachon cheklab bo'lmaydi degan tushuncha kelib chiqmasligi kerak. Ular ham ma'lum vaqtlarda cheklanishi mumkin. Masalan, favqulodda holatlarda inson huquqlariga ma'lu bir cheklovlar o'rnatilishi mumkin.

¹ G.Yuldasheva., N.Gafurova “Inson huquqlari” darslik. Toshkent-2023. B.17.

Asosiy qism: Favqulodda vaziyatlarda inson huquqlari cheklanishining nazariy-huquqiy asoslariga to'xtaladigan bo'lsak, 1948-yili qabul qilingan Inson huquqlari bo'yicha Umumjahon deklaratsiyasi, "Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya" ning 2-moddasi, 1966-yili qabul qilingan "Fuqarolik va siyosiy huquqlar huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" ning 12,13-moddalari² larda inson huquqlari va erkinliklari va ularni muayyan holatlarda cheklash bo'yicha ha qoidalar aks ettirilgan. 12-moddaga to'xtaladigan bo'lsak, u yerda quyidagi jumlar nazarda tutilgan "Biror bir davlat hududida qonuniy ravishda turgan har bir kishi ushbu hudud doirasida erkin ko'chib yurish va yashash joyini erkin tanlash huquqiga ega. Har bir kishi har qanday mamlakatni, jumladan o'z mamlakatini tark etish huquqiga ega. Yuqorida qayd etilgan huquqlar hech qanday cheklash obyekti bo'lishi mumkin emas, qonunda nazarda tutilgan davlat xavfsizligini, jamoat tartibini, aholi salomatligi yoki ma'naviyatini yoki boshqalarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish uchun nazar bo'lgan va ushbu paktga e'tirof etilgan boshqa huquqlarga mos keladigan cheklashlar bundan mustasno".³ Bu moddada ham ko'rishimiz mumkinki, davlat xavfsizligini, jamoat tartibini, aholi salomatligini, boshqalarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish uchun insonlarning huquqlariga ma'lum cheklashlar o'rnatilishi mumkin. Endi favqulodda holatlar qanday vaqtlarda kuztilishi mumkin degan savolga javob beradigan bo'lsak, "Favqulodda holat to'g'risida" gi qonunda quyidagicha ta'rif berilgan **favqulodda holat** — O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining, chet el fuqarolarining hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklariga, shuningdek yuridik shaxslarning huquqlariga nisbatan ushbu Konstitutsiyaviy Qonunda nazarda tutilgan ayrim cheklovlar belgilashga yo'l qo'yadigan hamda ularning zimmasiga qo'shimcha majburiyatlar yuklaydigan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki ayrim joylarida vaqtincha joriy qilinadigan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda tashkiliy-huquqiy va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, boshqa tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining alohida huquqiy rejimi"⁴. Mana shu ta'rifda ko'rishimiz mumkinki, cheklovlar vaqtinchalik bo'ladi, ya'ni ma'lum vaqt oralig'ida, keyin hamma uchun bir xil bo'ladi, ya'ni tli, dini, millati, yoki egallab turgan mansabidan qat'iy nazar hamma uchun bir xil. Favqulodda vaziyatlar qanday holatlarda joriy qilinishi mumkin, masalan tabiiy ofatlar vaqtida, pandimiyalar vaqtida, davlat xavfsizligiga xavf tug'ilayotgan vaqtlarda. Va aynan mana shu vaqtlarda inson huquqlarining ma'lum bir ko'rinishlari cheklanishi mumkin. Endi O'zbekiston Respublikasi hududida favqulodda holat joriy qilinishining huquqiy asosiga to'xtaladigan bo'lsak, "Favqulodda holat to'g'risida" gi qonunning 6-moddasi asos bo'ladi. "Favqulodda holat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki ayrim joylarida joriy etiladi". Va farmon O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida ko'rib chiqiladi.⁵ Yuqoridagilar asosida O'zbekistonda favqulodda holat joriy qilinish mumkin va

² "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt". <https://lex.uz/docs/-2640479>

³ "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt". <https://lex.uz/docs/-2640479>

⁴ O'zbekiston Respublikasi "Favqulodda holat to'g'risida" gi qonuni. <https://lex.uz/docs/-5774840>

⁵ O'zbekiston Respublikasi "Favqulodda holat to'g'risida" gi qonuni. <https://lex.uz/docs/-5774840>

fuqarolarning huquqlari cheklanishi mumkin, boshqa holatlarda O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning huquqlarini cheklashga yo'l qo'yilmaydi.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo'lak, inoslarning huquqlari ma'lum vaziyatlarda cheklanishi mumkin, lekin ba'zi talablarga javob berishi kerak, ya'ni ma'lum bir vaqt oralig'ida joriy qilinishi kerak bu bir nech kunlarni yoki oylarni o'z ichiga olishi mumkin. Hamda qonuniylik talablariga javob berishi kerak, ya'ni hamma uchun bir xilda va barcha uchun majburiy bo'lishi kerak. Shuningdek, davlat har qanday favqulodda vaziyatni aholiga e'lon qilishi kerak.

References:

1. G.Yuldasheva., N.Gafurova "Inson huquqlari" darslik. Toshkent-2023. B.17.
2. "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt". <https://lex.uz/docs/-2640479>
3. O'zbekiston Respublikasi "Favqulodda holat to'g'risida" gi qonuni. <https://lex.uz/docs/-5774840>.

